O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2022 - yil 30 - iyun 398-10-0-Q/22 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-iyundagi 343-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 29-noyabrdagi 27-sonli farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-iyundagi 343-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risi”dagi Qonunning 6-25-moddalariga asoslanib **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 23-iyundagi 343-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 2-apreldagi 5050-sonli qaroriga muvofiq ichki ishlar organlarining quyi bo‘g‘inidagi tarkibiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla huquq-tartibot maskanlari (keyingi o‘rinlarda - maskanlar) tashkil etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Belgilansinki, maskanlar mahallalarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ichki ishlar organlari, boshqa huquq-tartibot organlari va jamoat tuzilmalarining faoliyatini muvofiqlashtirish madsadida Toshkent shahri tumanlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida hamda yirik tuman va shaharlarda har beshta mahalladan bittasidagi ichki ishlar organlari tayanch punktlari negizida, shuningdek, mavjud bo‘sh turgan binolardan samarali foydalangan holda tashkil etiladi va ichki ishlar organlariga tegishli bo‘ladi.

Quyidagilar:

Mahalla huquq-tartibot maskani tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Mahalla huquq-tartibot maskanining namunaviy loyihasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimligi (M.Fayziyev) Ichki ishlar bosh boshqarmasi (T.Aripov) bilan birgalikda ikki oy muddatda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan maskanlarni 2023-2025-yillarda tashkil etish va joylashtirish, ularni ta’mirlash, mukammal ta’mirlash va mebel bilan jihozlash dasturini tasdiqlasin va ijrosini ta’minlasin.

4. Viloyat Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish boshqarmasi (X.Yo‘ldoshev) Ichki ishlar boshqarmasi tomonidan kiritiladigan ro‘yxatga muvofiq bino bilan ta’minlangan maskanlarni belgilangan tartibda Internet jahon axborot tarmog‘iga ulash choralarini ko‘rsin.

5. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi manfaatdor boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda mahalla huquq-tartibot maskanlarida ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoat tuzilmalari bilan mahallalar bo‘yicha birgalikda faoliyat olib borishi tartibini tasdiqlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash viloyat hokimining moliya va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi boshlig‘i M.Fayziyev hamda viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi boshlig‘i T.Aripov zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi v.b. **Z.Mirzayev**